

**TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA O'QTUVCHI VA O'QUVCHILARNING  
O'ZARO HAMKORLIGI HAMDA TA'LIMGA QARATILGAN  
ISLOHOTLAR.**

*Tojikaarimova Moxira Anvarjon qizi*  
*Qoqon unversiteti talabasi*  
*moxiratojikaarimova660@gmail.com*

**Annotatsiya:**

*Ushbu maqolada Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qtuvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi haqida fikirlar yuritilgan. Hamkorlik deganda pedagogning o'quvchi bilan ishlay olishi, u bilan muloqotda bo'la olishi nazarda tutilgan. Hamkorlikka asoslangan do'stona muhitdagi ta'lim jarayonini interfaol usullar yordamida tashkil etish samaradorlikni ta'minlashga ko'maklashadi. O'qituvchi mas'ul o'quvchilarning qiziqishlari asosida o'qitish o'qituvchi davlat talablari, o'quv dasturi bo'yicha o'qitadi davlat talablari, o'quv dasturi bo'yicha o'quvchilarning ehtiyoji va imkoniyatlariga muvofiq o'qitish metodlaridan foydalanadi.*

**Kalit so'zlar:** Muloqot, so'z, shaxs, pedagogika, o'quvchi, uzluksiz ta'lim, Farmon, ta'lim, ta'lim-tarbiya, metod, hamkorlik, imkoniyat.

**Abstract:**

*This article discusses the mutual cooperation of teachers and students in the educational process. Cooperation means that the teacher can work with the student and communicate with him. Organization of the educational process in a friendly environment based on cooperation using interactive methods helps to ensure efficiency. The teacher is responsible for teaching based on the interests of the students. The teacher teaches according to the state requirements and the curriculum. uses methods.*

**Key words:** *Communication, word, person, pedagogy, student, continuous education, Decree, education, education-education, method, cooperation, opportunity.*

**Абстрактный:**

*В данной статье рассматривается взаимное сотрудничество преподавателей и учащихся в образовательном процессе. Сотрудничество означает, что преподаватель может работать со студентом и общаться с ним. Обеспечить эффективность помогает организация учебного процесса в дружественной среде на основе сотрудничества с использованием интерактивных методов. Учитель несет ответственность за преподавание, исходя из интересов учащихся. Педагог преподает в соответствии с государственными требованиями и учебной программой. Использует методы.*

**Ключевые слова:** *Общение, слово, человек, педагогика, студент, непрерывное образование, Указ, образование, образование-воспитание, метод, сотрудничество, возможность.*

Mustaqil O'zbekistonimizda uzluksiz ta'lim tizimining isloh qilinishi, ya'ni ta'lim standartlari asosida ta'lim va tarbiya jarayonini qayta tashkil etishga kirishilgan hozirgi kunda tarbiyachi faoliyatiga uning pedagogik mahoratiga alohida e'tibor berilmoqda. O'qtuvchi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim va fahrli shu bilan birga ma'suliyatli vazifani bajaradi. O'qtuvchining siyosiy yetukligi bolalarning tarbiyalash sifati uchun xalq va jamiyat oldidagi o'z ma'suliyatini anglashga ta'lim - tarbiya ishlarini hal etishga ijodiy yondoshishga o'z mahoratini doimo faollashtirib borish va hamkasblarning ishdagi o'sishga ko'maklashuviga yordam beradi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qtuvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligida, o'qtuvchining mahorati asosiy vazifasi hisoblanadi. Hozirgi kunda Respublikamiz rahbariyati pedagoglar faoliyatini yuqori baholamoqda. Ma'lumki O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov 1996-yil 9-yanvardagi Farmoniga binoan «1 oktyabr Xalq ta'limi hodimlari – o'qituvchi murabbiylar kuni» deb e'lon qilindi. Bu voqea davlatimizni o'qituvchilarni jamiyatda tutgan o'rni naqadar yuksakligidan dalolat beradi. Yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda erishgan yutuqlari uchun, pedagog ishidagi ijodiy mehnatlari uchun, ilg'or tajribalarni umumlashtirishda erishgan yutuqlari uchun o'qituvchi, tarbiyachilar «Metodist o'qituvchi», «katta o'qituvchi», «Metodist - tarbiyachi», «Xalq maorifi a'lochisi» va shu kabi sharafli unvonlar bilan taqdirlanadilar. Tegishli ma'lumotli, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagoglik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega deyiladi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 5-moddasida.<sup>1</sup>

Pedagog faoliyatining muvaffaqiyati pedagogik qobiliyatlarining mavjudligiga ham bog'likdir. Pedagogik qobiliyat - pedagogik mahoratga erishishning zaminidir. Pedagogik qobiliyat tarkibiga: pedagogik kuzatuvchanlik, pedagogik tasavvur, diqqatni taqsimlash, tashkilotchilik qobiliyati va pedagogik muomala kiradi. Pedagogik qobiliyatlar pedagogik faoliyati jarayonida, shuningdek uni bu faoliyatga tayyorlash jarayonida shakllanadi. Pedagogik mahorat – bu yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishni yuksak darajada va doimiy ravishda takomillashtirib borish san'atidir. Tarbiyachi maktabgacha yoshidagi bolalarga tabiat, jamiyat hodisalari, kattalarning mehnati haqida boshlang'ich bilim va tushunchalar beradi, ularga madaniy ahlok, o'z tengdoshlari va kattalar bilan madaniyatli munosabatda bo'lish odatlarini singdiradi, yaxshilik, haqiqatgo'ylik, adolat, jasurlik, kamtarinlik, kattalarga hurmat bilan qarash,

<sup>1</sup> <https://azkurs.org/tarbiyachi-oqituvchi-va-oquvchining-ozaro-hamkorligi.html>

tabiatga qiziqish, kuzatuvchanlik, o'limlik va hayvonlarga g'amxurlik bilan qarash, mehnatsevarlik, kattalarni mehnati natijalarini asrab-avaylash kabi ahloqiy sifatlarni tarbiyalaydi. Nutq madaniyati - ijtimoiy madaniyatni, kishilik jamiyati madaniyatini aks ettiruvchi bir ko'zgidir. Nutq madaniyati adabiy tilning har ikki shakli - yozma va og'zaki shakli uchun zarurdir. Nutq madaniyatiga e'tibor yolg'iz o'qituvchilardan emas, balki har bir fuqarodan ongli ravishda o'zlashtirish talab qilinadigan insoniy fazilatlardan biridir.<sup>2</sup> Mahoratli pedagog har qanday o'quvchi bilan o'rtadagi hamkorlikni yo'lga qo'ya oladi. Hamkorlik asosida ishlagan pedagogning o'quvchilari kelajakda o'z kasbi bo'yicha yetuk kadr bo'lib yetisha oladi. Chunki o'qituvchi unga ham bilim ham ta'lim bera olgan bo'ladi. Hamkorlikda o'qituvchining vazifalari o'quvchi bilan chin dildan suhbatlasha olishi, uni onasi kabi muloqotda bo'la olishi, uning muammolari bilan ishlay olishi, unga har doim ko'maklashishi zarurdir. O'qituvchilarga yaratilgan sharoitlardan foydalangan holda o'qituvchi oquvchiga yetarli bilimni bera olishi kerak.

Bugungi kunda ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan. Ushbu talabdan kelib chiqqan holda, ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2020 yil 23 sentyabr kuni qabul qilingan bo'lib, uning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Mazkur Qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy printsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi, unda belgilangan masofaviy ta'lim haqidagi qoidalar o'quv rejaları va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan. Shuningdek, Qonunga ko'ra, davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliy, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki Hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo'ldi. Nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ularning ta'sischi tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Nodavlat ta'lim tashkilotlariga litsenziya Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladigan bo'ldi. Qonunda ta'limga oid qoidalar belgilanib, u ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, qonunga inklyuziv ta'lim to'g'risidagi qoidalar kiritilib, unga binoan, inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy,

<sup>2</sup> <http://fayllar.org>

sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etadi. Mazkur qonun jahon standartlari talablaridan kelib chiqqan holda ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning qamrovi kengligi va o'ziga xos xususiyatga ega ekanligi bilan 1997 yil 29 avgust kuni qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonundan tubdan farq qiladi. Ta'lim borasida shuncha shart sharoitlar yaratib berilmoqda bunda o'quvchi ham o'qtuvchi ham foydalanishi zarur. Agar o'qtuvchi o'quvchi bilan ishlay olmas ekan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'ymas ekan davlat rivojlanmaydi yurtimizga yetuk kadrlar chiqmaydi.

Xulosa qilib shuni aytshim ma'lumki bundan ancha yillar avval hech bir o'qtuvchi ham o'quvchi ham hozirgi kundagi sharoitlarda ta'lim bermagan hamda ta'lim olmagan. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qtuvchi va o'quvchilarning ortasida o'zaro hamkorliklar yo'lga qo'yilmagan, hamda ta'limga qaratilgan islohotlar u yillarda yaratilmagan. Ota-bobolarimiz doimo yaxshi niyat, yaxshi orzu-istaklar bilan yashaganlar o'zlaridan yaxshi farzandlar, yaxshi shogirdlar, yaxshi shoirlar, yaxshi nom qoldirishga harakat qilganlar. Yaxshi xulqqa ega bo'lgan kishilirgina odamlarga yaxshilik qila oladilar. Bolalarga oliy janob munosabatlarni: vatanni sevmoq, diyonat, matonat, savob, shijoat, sabr, vijdon, hayo, iffat, sadoqat, do'stlik, kamtarlik, lafz, mardlik, odamiylik, mehnat sevarlik, rostgapirish, to'g'ri so'zlik kabi fazilatlarni ta'lim-tarbiya jarayonida ularni ongiga singdirib borishimiz biz pedagoglarning burchimizdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qayumova N. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent, 2013.
2. Hasanboyeva O. Oilada barkamol avlod tarbiyasi. – Toshkent, O'zbekiston, 2010.
3. Otavaliyeva O'. Bola tarbiyasida bog'cha va oila hamkorligi. – Toshkent, O'qituvchichi, 1994.
4. Ikromjonovna, J.S. (2023). UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA JORIY ETILGAN YANGI DARSLIKLARNING AFZALLIK JIHATLARI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 661-663.
5. Jumanova, S. (2023). AUTUMN MOTIF IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Scientific Journal of the Fergana State University, 28(2), 29.
6. Bromwich D. (2015). Trapped in the Virtual Classroom. The New York Review of Books.
7. Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARGA TA'LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 581-583
8. S Jumanova. Boshlang 'ich sinf ona tili va o 'qish savodxonligi darslari orqali dunyoviy bilimlarni egallashda o'zbek xalqining qadriyatlarimizning o'rni
9. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatini.2023